

**O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYA FANINING SHAKLLANISHIDA**  
**AHMADALI ASQAROVNING O‘RNI**

**O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti**  
**Tarix fakulteti tarix yo‘nalishi III-bosqich talabasi**  
**Ashirov Ilxomjon Odiljon o‘g‘li**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada O‘zbekiston arxeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida atoqli olim, akademik Ahmadali Asqarovning ilmiy merosi va faoliyatining o‘rni yoritiladi. Unda olimning arxeologik tadqiqotlarga qo‘shgan hissasi, ayniqsa, Qadimgi Farg‘ona, Dalvarzintepa, Jarqo‘ton kabi tarixiy obidalaridagi qazishmalar orqali o‘zbek xalqining qadimiy madaniyati, shaharsozligi va me‘morchiligi haqida yangi ilmiy xulosalar bergani ta‘kidlanadi. Shuningdek, maqolada Ahmadali Asqarovning ilmiy maktab yaratgani, yetuk kadrlar tayyorlashdagi roli va uning asarlari O‘zbekiston tarixshunosligida tutgan o‘rni tahlil qilinadi. **Kalit so‘zlar:** Ahmadali Asqarov hayoti, arxeologik tadqiqotlar, Dalvarzintepa, o‘zbek xalqi madaniyati, tarixshunoslik, ilmiy maktab

**Аннотация:** В данной статье освещается роль выдающегося ученого, академика Ахмадали Аскарлова в становлении и развитии археологической науки в Узбекистане. Особое внимание уделяется его вкладу в археологические исследования, в частности в изучение таких древних памятников, как Древняя Фергана, Дальварзинтепа, Джаркурган и других. Подчеркивается значение его открытий для понимания древней культуры, градостроительства и архитектуры узбекского народа. Кроме того, анализируется его роль в создании научной школы, подготовке квалифицированных кадров и значение его трудов в историографии Узбекистана. **Ключевые слова:** Ахмадали Аскарлов — жизнь, археологические исследования, Дальварзинтепа, культура узбекского народа, историография, научная школа

**Abstract:** This article explores the role of prominent scholar and academician Ahmadali Asqarov in the formation and development of archaeological science in Uzbekistan. It highlights his significant contributions to archaeological research, particularly his studies of ancient sites such as Ancient Fergana, Dalverzin Tepe,



Jarkutan, and others. The article emphasizes the importance of his discoveries in understanding the ancient culture, urban planning, and architecture of the Uzbek people. Furthermore, it analyzes his role in establishing a scientific school, training skilled specialists, and the impact of his scholarly works on Uzbek historiography.

**Keywords:** Ahmadali Asqarov's life, archaeological research, Dalverzin Tepe, Uzbek cultural heritage, historiography, scientific school

Ahmadali Asqarov 1935-yil 25-sentabrda Namangan shahrida tug‘ilgan. Arxeolog-tarixchi olim. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1987), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1995), tarix fanlari doktori (1978), professor (1990). Akademik Asqarov mamlakatimizning yetakchi arxeolog va tarixchi olimlaridan hisoblanadi. U 1957-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Instituti tarix-filologiya fakultetining tarix bo‘limini tamomlab, Respublika Fanlar akademiyasining Tarix va Arxeologiya institutiga aspiranturaga qabul qilingan.<sup>1</sup> 1963-yilda “Zarafshon daryosi etaklari bronza davrida” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.<sup>2</sup> Keyinchalik O‘zbekiston FA Tarix va Arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutida kichik ilmiy xodim (1961-1963), so‘ngra katta ilmiy xodim (1963-1966), keyinroq arxeologiya yo‘nalishi bo‘yicha direktor o‘rinbosari (1966-1970) lavozimlarida xizmat qilgan. 1970-1987-yillarda O‘zbekiston FA Arxeologiya instituti direktori lavozimida faoliyat yuritgan. Ahmadali Asqarov Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1985). 1992-yilda “Mustaqillik” esdalik nishoni bilan taqdirlangan. 1993-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining 60 yillik nishonini olgan. 1995-yilda T.N.Qori-Niyoziy nomidagi medal bilan taqdirlangan va “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvonini olgan. 2023-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

A. Asqarov 600 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, shu jumladan 20 ta monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari muallifi. Shulardan 60 dan ortiq xorijiy tillarda (ingliz, fransuz, nemis, yapon, fors, xitoy) 200 ga yaqini rus tilida chop etilgan. Ilmiy yo‘nalishining kengligi: qadimgi shaharsozlik madaniyati va ilk davlatchilikning shakllanish jarayonlari; O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi; arxeologik manbalar dolzarb tarixiy muammolar yechimi xizmatida; Oriylar muammosi va uning tarixiy —

<sup>1</sup> O‘zFA Kutubxonasi, Arxiv materiallari, Toshkent, 2023, B. 1–50.

<sup>2</sup> “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 10.02.2024, B. 3–4.



arxeologik tahlili; arxeologiya fanining ilmiy uslubiy va nazariy masalalari; noyob arxeologik yodgorliklarni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirish bobida ilmiy — amaliy g‘oyalar ijodkori. Ahmadali Asqarov xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va madaniy aloqalarning rivojlanishiga ham ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. Jumladan, 1991 yil bahor oyida Alma-Ata shahrida bo‘lib o‘tgan YUNESKOning seminar kengashida amerikalik professor Richard Fry bilan birgalikda Markaziy Osiyo tadqiqotlari institutini tuzish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan. Bu markaz Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston kabi mustaqil yosh davlatlarni jahon sivilizatsiyasidagi tarixiy o‘rmini o‘rganishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bu taklifga Ahmadali Asqarov Alma-Ata, Parij, Tehron, Samarqand shaharlarida bo‘lib o‘tgan YUNESKO yig‘inlarida xalqaro ilmiy jamoatchilik e‘tiborini qaratib bu g‘oyani himoya qilib chiqqan. Nihoyat 1995 yil 5 iyulda Samarqandda 12 davlat vakillari ishtirokida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada “Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti” ochilishi haqida bitim imzolangan. 1995 yil 26 avgustda esa ushbu xalqaro Institutni YUNESKOning bosh rahbari prof. Federiko Mayor ishtirokida rasman ochilish tantanasi bo‘lgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston arxeologlari Fransiya, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Polsha, Rossiya kabi o‘ndan ortiq davlatlar arxeolog mutaxassislari bilan hamkorlikda bevosita ilmiy shartnomalar asosida mustaqil O‘zbekistonimiz hududlarida arxeologik qazishma ishlarini olib boradi, xalqimiz o‘tmish tarixining yangidan-yangi qirralarini o‘rganish davom etmoqda. Ushbu hamkorliklar tufayli har yili o‘nlab arxeolog yoshlar xorijiy ilmiy safarlarda bo‘lishib, mustaqil O‘zbekistonimiz arxeologiya faniyutuqlarini targ‘ib qilish bilan birga jahon arxeologiyasi yangiliklari bilan tanishib kelmoqdalar.

Ahmadali Asqarov nomi jahonda tanilgan arxeolog-tadqiqotchilar qatoriga kiradi va u prof. Clare Smith tashkil etgan 11 jildlik “Global Archaeology Encyclopedia”ga kiritilgan. 2014 yilda ushbu ensiklopediyada u haqda maqola bosilgan. Bu nufuzli ensiklopediyaga o‘zbek arxeologlari vakilining birinchi bor kiritilishi mustaqil O‘zbekistonda arxeologiya faniga berilgan yuksak bahodir deb hisoblaymiz. 1970-yilda Samarqandda Arxeologiya instituti tashkil etiladigan bo‘ldi. Institut ochilishiga ruxsat olish uchun Asqarov 6 oy Moskvada yurib, 40 ta ekspertning roziligini oladi. O’sha paytda SSSR bo‘yicha ikkita Arxeologiya instituti bo‘lgan, biri Moskvada, biri Kievda. Uchinchi esa Samarqandda tashkil etildi. Bunga arxeolog Ahmadali Asqarovning Sopoltepadagi ochgan katta kashfiyoti ham sabab bo‘lgandi. Ahmadali Asqarov o‘z ilmiy faoliyatida arxeologiyani tarixshunoslikning ajralmas qismi sifatida ilgari surdi. U o‘z izlanishlari orqali yozma manbalarda mavjud bo‘lmagan tarixiy



haqiqatlarni arxeologik topilmalar asosida tiklashga harakat qilgan. Misol uchun, Sopoltepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar asosida Asqarov O‘zbekistondagi shaharsozlik madaniyati haqida mavjud bo‘lgan sobiq SSSR tarixshunosligidagi noto‘g‘ri qarashlarni rad etdi.

Sopoltepadan topilgan miloddan avvalgi II ming yillikka oid paxtachilik, ipakchilik, hunarmandchilik, san‘at va arxitektura namunalarining ochilishi orqali Asqarov ilmiy jamoatchilikka shahar madaniyati o‘zbek zaminida Axamoniylar yoki Iskandar emas, balki undan ham ming yillar oldin mavjud bo‘lganini isbotladi. Bu esa tarixshunoslikda tub burilish yasadi va milliy tarixga yangicha nazar bilan qarash zarurligini ko‘rsatdi<sup>3</sup>. Ana shu kashfiyot Samarqandda arxeologiya instituti ochilishiga sabab bo‘ldi. Ahmadali Asqarov esa unga 1987-yilga qadar direktorlik qildi. Olimning eng katta ishlaridan biri Surxondaryodagi Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan 100 gektarlik qadimiy shahar va bronza davriga oid ibodatxona xarobalaridir. Bu O‘zbekiston zaminida topilgan zardushtiylik diniga oid birinchi ibodatxona edi<sup>4</sup>. Qadimiy shaharchaning bir gektardan ortiq maydonida monumental ibodatxonani ochdik, — deydi olim. — U yerda Zardushtiylikka oid olovga, tuproqqa, suvga sig‘inishning hammasi moddiy materiallarda o‘z aksini topgandi. Unga qadar jahonda zardushtiylik bundan 2,5 ming yil oldin ilk temir davrida paydo bo‘lgan, deb hisoblanardi. Ahmadali Asqarovning topilmalari bilan zardushtiylikning ancha avvalroq — bronza davrida yurtimiz hududlarida paydo bo‘lgani isbotlandi. Jarqo‘tonda topilgan ibodatxona qoldiqlari xalqimizning diniy va falsafiy dunyoqarashi shakllanishi tarixini chuqurroq tushunishga imkon berdi.

Shuningdek, topilmalarda ko‘plab madaniy an‘analar, hunarmandchilik buyumlari, ayollar taqinchoqlari, sopol idishlar, bezakli devor bo‘yoqlari o‘z aksini topgan. Bularning barchasi o‘zbek xalqining badiiy didi, diniy e‘tiqodi, mehnat madaniyati, urug‘-qabila tizimi kabi elementlarning qadimdan mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Asqarovning bu boradagi ishlari xalqimiz tarixini chorvadorlar jamiyatidan iborat degan qarashlardan chiqarib, uni urbanizatsiyalashgan, madaniy jihatdan boy sivilizatsiya egalari sifatida tasvirlashga asos bo‘ldi.

Ahadali Asqarovning arxeologik izlanishlari orasida Dalvarzintepa yodgorligining o‘rganilishi alohida o‘rin tutadi. Surxondaryo viloyatida joylashgan ushbu yodgorlik Kushonlar davriga oid eng yirik shaharlardan biri bo‘lib, miloddan

<sup>3</sup> O‘zFA Kutubxonasi, Arxiv materiallari, Toshkent, 2023, B. 1–50

<sup>4</sup> A. Asqarov, *Eng qadimiy shahar (Jarqo‘ton yodgorligi haqida)*, Toshkent: Fan, 2010, B. 5–30.



avvalgi II asrdan boshlab madaniy, iqtisodiy va diniy markaz sifatida faoliyat yuritgan. Asqarov rahbarligida olib borilgan sistematik qazishmalar natijasida qadimiy shahar infratuzilmasi – ko‘chalar, hunarmandchilik ustaxonalari, diniy ibodatxonalar, saroylar va yashash joylari aniqlangan.

Olimning topilmalari orasida eng ahamiyatlisi – oltin va tilla buyumlar, noyob haykalchalar, sopol idishlar hamda me‘moriy bezaklardir. Ayniqsa, qadimiy teatr yoki ibodatxona bino qoldiqlari ushbu hududda san‘at va diniy marosimlarning rivojlanganini ko‘rsatdi. Dalvarzintepa orqali o‘zbek xalqi ajdodlarining qadimiy shaharsozlik an‘analari, iqlimga mos me‘morchiligi va xalqaro savdo yo‘llari bilan aloqasi isbotlandi.<sup>5</sup>

Ahmadali Asqarov bu yodgorlikni “osmon ostidagi muzey” sifatida baholagan va arxeologik turizm rivoji uchun muhim obida deb hisoblagan. Bu yodgorlik bugun O‘zbekiston tarixida qadimgi sivilizatsiyalarning bevosita izlari sifatida o‘rganilmoqda.

Ahmadali Asqarov Farg‘ona vodiysini Markaziy Osiyodagi eng qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri sifatida baholagan. U bu hududda olib borgan arxeologik tadqiqotlari orqali quyidagi xulosalarga kelgan: Qovunchitepa yodgorligidagi qazishmalar Farg‘onada miloddan avvalgi II mingyillikdayoq doimiy aholi yashagan shahar tipidagi manzillar mavjud bo‘lganini isbotladi. Bu yerda topilgan kulollik buyumlari, suyakdan ishlangan asboblar, va zargarlik namunalari madaniy taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi. Mingtepa arxeologik majmuasi Asqarov tomonidan "Farg‘onaning eng qadimiy shaharlaridan biri" deb atalgan. Bu yodgorlikda topilgan mudofaa devorlari, ko‘chalar, hunarmandchilik ustaxonalari qadimiy farg‘onaliklar shaharsozlikni yaxshi bilganini ko‘rsatadi. Asqarov o‘z tadqiqotlarida qadimgi Farg‘ona xalqlari o‘ziga xos diniy marosimlar, ko‘p tarmoqli hunarmandchilik, va xalqaro savdo yo‘llari bilan aloqador bo‘lganini ilmiy asosda yoritgan.

### **Xulosa**

Ahmadali Asqarovning ilmiy faoliyati nafaqat O‘zbekiston arxeologiyasi, balki butun Markaziy Osiyo tarixshunosligi uchun beqiyos ahamiyatga ega. U o‘z izlanishlari orqali qadimgi shaharlar, madaniy qatlamlar, ibodatxonalar va hunarmandchilik markazlarini aniqlab, o‘zbek xalqining qadimiy sivilizatsiyaga ega xalq ekanini ilmiy asosda isbotladi. Ayniqsa, Jarqo‘tondagi zardushtiylik ibodatxonasi, Dalvarzintepadagi shahar infratuzilmasi va Farg‘ona vodiysidagi qadimiy manzillarning tadqiqi tarix

<sup>5</sup> A. Asqarov, maqola, *Global Archaeology Encyclopedia*, London, 2014, B. 55–60.



faniga yangi sahifalar olib kirdi. Olimning arxeologiyani tarixshunoslik bilan uyg'unlashtirgan yondashuvi, ilmiy maktab yaratgani va xalqaro ilmiy maydonda O'zbekiston obro'sini oshirgani uning ilmiy merosini yuksak qadrlashga asos bo'ladi. Asqarovning mehnati tufayli bugun o'zbek xalqi o'z tarixiga ilmiy asoslangan holda, faxr bilan qaray oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A. Asqarov "**O'zbek xalqining etnogenezi**" Toshkent: Fan, 2005. B. 12–45.
2. O'zFA Kutubxonasi - **Arxiv materiallari**. – Toshkent, 2023. B. 1–50.
3. "Yangi O'zbekiston" gazetasi "**Ahmadali Asqarov ilmiy merosi**" – 10.02.2024. B. 3–4.
4. O'zbekiston milliy axborot agentligi. Maqola: "**Zahmatkash olim ibrati**." – Toshkent, 2023. B. 2–6.
5. O'zbekistonning taniqli olimlar ensiklopediyasi - Toshkent: Sharq, 2010. B. 150–165.
6. A. Asqarov "**Eng qadimiy shahar Jarqo'ton yodgorligi haqida**"– Toshkent: Fan, 2010. B. 5–30.
7. A. Asqarov maqolasi "**Global Archaeology Encyclopedia**", – London, 2014. B. 55–60.